



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Do'smuxamedova Nozima

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0009-0007-8603-5616

nozima_dosmuxamedova@tues.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, takomillashtirish masalalari va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilot (NNT) lari mablag'lari, buxgalteriya hisobi schotlari, grantlar, xalqaro grantlar, a'zolik badallari, ixtiyoriy badallar, beg'araz olingan mulk.

ОСОБЕННОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Дусмухамедова Нозима

Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация. В статье изложены сведения по вопросам ведения, совершенствования и особенностям бухгалтерского учета в негосударственных некоммерческих организациях.

Ключевые слова: негосударственные некоммерческие организации (НПО), средства, бухгалтерский учет, гранты, международные гранты, членские взносы, добровольные пожертвования, безвозмездно полученное имущество.

SPECIFIC FEATURES OF ACCOUNTING IN NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

Dusmukhamedova Nozima

Termez University of Economics and Service

Abstract. The article presents information on issues of maintaining, improving and specific features of accounting in non-governmental non-profit organizations.

Keywords: non-governmental non-profit organizations (NGOs), funds, accounting, grants, international grants, membership fees, voluntary donations, property received free of charge.

Kirish.

O'zbekiston demokrativ huquqiy davlat sifatida shakllanishni davom etmoqda. Demokrativ mamlakatda hokimiyat halqqa xizmat qilishini bilamiz. Fuqorolik davlatda siyosiy va iqtisodiy sektorlardan tashqari 3 sektor ham mavjud. Yani 3-sektor, nodavlat notijorat sektori juda muxim hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimizda to'qqiz mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlariga qulaylik va yengilliklar yaratish maqsadida zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida yigirmaga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumatning qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" gi Qonunining 2-moddasiga asosan nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti sanaladi (Qonun, 1999).

O'zbekiston Respublikasi 1999-yil 14-apreldagi 763-I-sonli Nodavlat notijorat to'g'risidagi qonunida (1999) keltirilgan vazifalarni bajarish uchun nodavlat notijorat tashkilotlari oldiga qator vazifalar belgilandi. Jumladan kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy ko'mak berish, mahalla, oila institutlarini yanada rivojlantirish, ushbu tashkilotlarning vazifalari qatoriga qo'shildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarida yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun buxgalteriya hisobi va uni rivojlantirish talab etiladi. Korxonalarda asosiy mablag' hisoblangan yani "Maqsadli mablag'larni" hisobini tashkil etish va takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

NNTlarda buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan Muxanovanning (2018) "Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobi va maqsadli mablag'lardan foydalanish" nomli dissertatsiya ishida xarajatlarni hisobga olishning ahamiyatli jihatlari, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob amaliyotidan farqlari, shuningdek, maqsadli mablag'lar hisobini takomillashtirish yuzasidan o'z qarashlarini keltirib o'tgan.

Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan Yegorova (2008) o'zining "Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini xususiyatlari" nomli asarida NNT larda foyda va zararlar tushunchalarining mantiqsiz ekanligi, faqatgina maqsadli sarflanishi muhimligini ta'kidlaydi. Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Shodiyev (2024) o'zining "Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" nomli monografiyasida NNT larda asosiy vositalarni hisobga olish, pul mablag'lari va ularning hisobi, grant mablag'lari nazorati va tahliliga to'xtalib, hisob ishlarini avtomatlashtirishni targ'ib qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, tizimli tahlil, taqqoslash, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda prognoz usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari soni bugungi kunda 20,7 foizga oshib, 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatini boshlagan.

NNT uchun buxgalteriya hisobini yuritishning maxsus tizimi ishlab chiqilmagan, shuning uchun notijorat tashkilotlari barcha yuridik shaxslar uchun umumiy bo'lgan me'yoriy-xuquqiy xujjatlardan foydalaniladi.

Maqsadli moliyalash mablag'larining xolati va xarakati, shuningdek a'zolik badallari va qaytarilmaydigan, **maqsadli** tadbirlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan boshqa

mablag'lar tushumi va sarflanishi to'g'risidagi axborotni umumlashtirish quyidagi 1-jadval hisobvaraqlarda aks ettirilgan:

1-jadval

Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar

№	Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar	Hisobraqam kodi
1	Grantlar	8810
2	Subsidiyalar	8820
3	A'zolik badallari	8830
4	Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari	8840
5	Boshqa maqsadli tushumlar	8890

NNTlari maqsadli tushumlari tarkibida grantlar alohida ajralib turadi, ya'ni grantlar, buxgalteriya hisobining asosiy faoliyatini amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Shuning uchun NNTlarda grantlar hisobini yanada takomillashtirishni ta'lif beraman.

Davlat tomonidan ajratiladigan grantlari uchun Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining asosiy moliyaviy manbasi davlat byudjetining respublika darajasidagi byudjeti hisobidan shakllansa, Hududiy jamoat fondlarining manbasi esa asosan mahalliy byudjet hisobidan ta'minlanadi.

2- jadval

**2008-2023-yillarda davlat granti tanlovlarida moliyalashtirilgan loyiha
va ajratilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumot**

Yil	Tashkilotlar soni	Ajratilgan mablag'
2008	7 ta	379 mln so'm
2010	124 ta	1 mlrd. 138 mln so'm
2015	251 ta	4 mlrd. 750 mln
2018	231 ta	6 mlrd 550 mln so'm
2020	237 ta	9 mlrd 200 mln so'm
2021	290 ta	11 mlrd 900 mln so'm
2022	160 ta	12 mlrd. so'm
2023	192 ta	17 mlrd so'm

Grantlar hisobiga doir buxgalteriya hisobining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, chunonchi grantlar hisobiga doir 10-son BHMS (1998) "Davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami bo'yicha ko'rsatiladigan ma'lumotlar"ni buxgalteriya hisobining xalqaro standarti yani, №20 "Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish"ga (BHXS, 2013) to'liq moslashtirish kerak. O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosidagi moliyaviy hisobotga o'tkazish bo'yicha belgilangan tadbirlar, mos ravishda, moliyaviy hisobotda maqsadli tushumlar, shu jumladan grantlarni xalqaro standartlar talablari asosida aks ettirish kerakligini taqozo etmoqda.

NNTlarda kelib tushgan grantlar hisobidan turli asosiy vositalar sotib olinishi yoki yangi bino va inshootlar qurilishi mumkin. NNTlarda ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'larni grantlar evaziga amalga oshirilgan kapital investitsiyalar deb nomlashni lozim deb hisoblaymiz. Shunga monan, grantlar evaziga asosiy vositalarni qurish va sotib olinishiga investitsiya qilingan grantlarning tizimli hisobini yuritish uchun 21-son BHMSda 0811 "Grantlar evaziga amalga oshirilayotgan kapital qurilish", 0821 "Grantlar evaziga sotib olingan asosiy vositalar" va 0831 "Grantlar evaziga sotib olingan nomoddiy aktivlar" hisobvarag'ini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Kapital investitsiyalarga sarflangan grantlar summasini qurilish

obyektlari hamda sotib olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar foydalanishga qabul qilingach, yani grantlar summasini yopilishiga quyidagi keltirilgan yozuvlarni amalga oshirish tartiblarini 21-son BHMSda nazarda tutish lozim:

Debet 8810 "Grantlar"

Kredit 8530 "Beg'araz olingan mulk".

Grantlar evaziga qurilgan obyektlar hamda sotib olingan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi summasiga quyidagicha qayd etib boradi:

Debet 8530 "Beg'araz olingan mulk"

Kredit 0200 "Asosiy vositalarning eskirishi", 0500 yo bo'lmasam "Nomoddiy aktivlarning eskirishi".

NNTlar tomonidan jalb etilgan grant mablag'lari hisobidan turli tovar-moddiy boyliklar xarid qilinishi mumkin. Misol uchun, "MEGA SPORT" jamoa fondi yoki "Qalb ko'zi" jamg'armasi tomonidan olingan grantlar evaziga sport va boshqa tanlovlar g'oliblarini taqdirlash, shuningdek, qariyalar hamda kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari xarid qilinadi.

Bundan tashqari, ushbu turdagi tashkilotlar grant mablag'lari hisobidan o'zlarining joriy faoliyati uchun zarur bo'lgan turli materiallar, yoqilg'i, xo'jalik inventarlari va boshqa zarur vositalarni ham sotib olishadi.

NNTlarda grant mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xaridlar natijasida olingan tovar-moddiy boyliklarni "grantlar evaziga sotib olingan tovar-moddiy boyliklar" sifatida nomlash maqsadga muvofiqdir. Bu turdagi boyliklarning buxgalteriya hisobi tizimli tarzda yuritilishi lozim.

Shu maqsadda, 21-sonli BHMS doirasida quyidagi hisobvaraqlar raqamlarini joriy etish tavsiya etiladi:

1091 – Grantlar evaziga sotib olingan materiallar,

2911 – Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar.

Grant mablag'lari evaziga tovar-moddiy boyliklarning xarid qilinishi va ularning foydalanilishiga oid buxgalteriya operatsiyalari uchun quyidagi yozuvlar tartibini 21-son BHMSda belgilash lozim:

Debet 1091 - "Grantlar evaziga sotib olingan materiallar", 2911 - "Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar"

Kredit 6010 - "Ta'minotchilarga to'lanadigan schotlar";

Grant mablag'lari evaziga tovar-moddiy boyliklar (materiallar yoki tovarlar) xarid qilinganda, ularning buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda yozuvlar amalga oshiriladi:

Debet 8810 - "Grantlar"

Kredit 8530 - "Beg'araz olingan mulk".

Grant mablag'lari hisobidan xarid qilingan tovar-moddiy boyliklarning tashkilot balansiga qabul qilinishi buxgalteriya hisobvaraqlarida quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 8530 - "Beg'araz olingan mulk"

Kredit 1091 - "Grantlar evaziga sotib olingan materiallar", 2911 - "Grantlar evaziga sotib olingan tovarlar".

Grantlarning ishlatilishi, sarflanishiga doir xarajatlar tarkibini ham nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish lozim. Chunonchi, NNTlar uchun maxsus "Xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom"ni ishlab chiqish va 21-son BHMSga xarajatlar hisobini aks ettirish tartiblarini kiritish maqsadga muvofiq.

Grantlarni moliyaviy hisobot shakllarida aks ettirish tartiblarini ham takomillashtirish zarur. 1-sonli shakl "Buxgalteriya balansi"ning passivi 1-bo'limida maxsus "Olingan grantlar" moddasini, 5-sonli shakl "Xususiy kapital to'g'risida hisobot" "Olingan grantlar" va "Olingan grantlarning ishlatilgan qismi" moddalarini nazarda tutish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi roli tobora ortib borayotgan bo'lsada, ularning moliyaviy faoliyatini belgilovchi buxgalteriya hisobining nazariy-metodologik va amaliy jihatlari hali to'liq shakllanmagan. Xususan, grant mablag'lari, maqsadli tushumlar va boshqa beg'araz moliyaviy resurslarning hisobini yuritish, ularning sarflanishi va yuridik jihatdan asoslangan moliyaviy natijalarini shakllantirish jarayonida tizimli yondashuv yetarlicha yo'lga qo'yilmagan.

Amaldagi normativ-huquqiy baza umumiy korxonalar uchun mo'ljallangan bo'lib, NNTlar faoliyatining xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi. Bu esa, grantlar evaziga amalga oshirilayotgan kapital xarajatlar, tovar-moddiy boyliklar, xizmatlar va boshqa resurslarning hisobini xalqaro standartlar talablari darajasida yuritishda muammolarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, moliyaviy hisobot shakllarida grantlar va boshqa maqsadli tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarning alohida ajratilmasligi shaffoflik va hisobdorlik prinsiplarini buzilishiga olib keladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berib o'taman.

-NNTlar buxgalteriya hisobining huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish: Grantlar, a'zolik badallari, beg'araz olingan mulk va boshqa maqsadli tushumlar hisobini yuritish bo'yicha alohida milliy buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

-Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda 10-son BHMSni IAS 20 bilan uyg'unlashtirish: Grantlar va davlat yordami bo'yicha hisob yuritishda xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiqlashtirish lozim.

-Yangi hisobvaraqa schyotlarini joriy etish: Grant mablag'lari evaziga sotib olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy boyliklar va kapital qurilishlar hisobini yuritish uchun 0811, 0821, 0831, 1091, 2911 kabi schyotlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

-“Xarajatlar tarkibi to'g'risida” maxsus nizom ishlab chiqish: NNTlar faoliyati xarajatlarning tuzilmasini huquqiy asosda belgilovchi alohida normativ hujjat tayyorlash orqali xarajatlar hisobini tizimlashtirish zarur.

-Moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish: 1-sonli shakl “Buxgalteriya balansi” va 5-sonli shakl “Xususiy kapital to'g'risida hisobot”larda “Olingan grantlar” va “Olingan grantlarning ishlatilgan qismi” moddalari alohida satrlar sifatida aks ettirilishi kerak.

-Grant mablag'larining samarali boshqaruvini ta'minlash uchun monitoring tizimini yaratish: Grantlar ajratilishi, sarflanishi va natijadorligi ustidan doimiy nazorat olib boruvchi elektron va normativ monitoring tizimi ishlab chiqilishi lozim.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/Reference:

BHMS (1998) 10-son BHMS Moliya vazirligi tomonidan 19.10.1998-y. 52-son bilan tasdiqlangan (AV tomonidan 03.12.1998-y. 562-son bilan ro'yx atga olingan).

BHXS (2013) 20-son BHXS “Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordami to'g'risida ma'lumotlarni ochib berish”. https://finotchet.ru/arti_cles/142/.

Mukhanova I. (2018) *The Role of Professional Accounting Societies in the Development of Accounting in Russia from a Historical Perspective* / I. Mukhanova // *Muhasebe ve Finans Tarihi Araştırmaları Dergisi*, – №. 15. – pp. 189-210. – 1,0 n.л.

Qonun (1999) O'zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi. 1999-yil 14-aprel. <https://lex.uz/docs/11360>.

Shodiyev A.A. (2024) Кичик бизнес субъектлари молиявий ҳисоботларини ишлаб чиқишда мўхсдан фойдаланиш истиқболлари. Журнал, “Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” № 1. 2024-yil 14-15-iyun. 582-585-б.

Егорова Л.В. (2008) *Учет и аудит в некоммерческих организациях: теория, методология и практика*. Автореферат дисс. д.э.н. Ростов-на-Дону.